

YUZ YILLIK URUSH VA UNING QAHRAMON QIZI JANNA DARK

Murtazayeva Fotima Otabek qizi
Toshkent davlat pedagogika universiteti talabasi
fmurtazayeva04@gmail.com

Annotatsiya: O'rta asrlarda G'arbiy Yevropaning eng yirik davlatlaridan hisoblangan Fransiya va Angliya bu davrlarda markazlashish sharoitida turgan edi. Ular o'rtasida hududiy, iqtisodiy kelishmovchiliklar mavjud bo'lib, bu keyinchalik ingliz monarxiyasining sulolaviy davosi bahonasida boshlangan yuz yillik urushga olib keldi. Ushu "Yuz yillik urush-Janna d'Ark" nomli maqolada manashu yuz yillik urush davomida bo'lgan voqealar va urushni ayni burulish pallasida xalq qahramoni sifatida maydonga chiqqan jasur qiz Janna d'Ark haqidagi voqealar batafsil yoritilib o'tilgan. U o'zining jasur, matonatlik bo'lganligi sababli ham hamon insoniyat tilidan tushurmay madh etib kelinmoqda.

Kalit so'z: Flandriya, Orlean, Orlean qizi, Filipp IV, Karl VI, Sena, monarxiya, Janna d'Ark, Domremi, Dyuran Laksar, Jon Dorn, Kashon.

O'rta asrlarda Fransiya va Angliya o'rtasidagi uzoq davom etgan mojaroning yakuniy va eng og'ir bosqichi Yuz yillik urush (1337-1453) bo'ldi. Fransuzlarning ko'lab hududi inglizlarning qo'lida uzoq muddat bo'lishi faqat ishlab chiqarish va savdoning qisqarishigina emas, aholi sonining kamayishiga ham olib keladi. Harbiy mojarolarni keltirib chiqargan ziddiyat o'choqlaridan biri ingliz qirollarining ota meros- Akvitanিয়া, ayniqsa uning g'arbiy qismi Giena bo'lgan. Markazlashayotgan Fransiya qirolligi uchun inglizlarning Gienadan uzul-kesil chiqarib yuborish muhim bo'lsa, Angliya aksincha, faqat Akvitanianing saqlab qolish emas, balki XIII asrda qit'ada qo'ldan ketgan yerlarni qaytarishni o'zining bosh maqsadi deb bilgan. Yuz yillik urush ingliz monarxiyasining sulolaviy davosi bahonasida boshlanib, shu tahlit davom etdi. Fransiya qiroli Filipp IV ning o'g'illaridan so'nggisi merosxo'r qoldirmasdan 1378-yil vafot etdi. Angliya qiroli Eduard III Filipp IV ning qizidan nabirasi sifatida Fransiya taxtiga o'z davosini e'lon qiladi. Fransiyada esa Xoldvig davridan qolgan yer-mulkni, tojni faqat erkak merosxo'rga qoldirish mumkinligi haqidagi qonunni ro'kach qilib, "Sali haqiqati" ga asosan, Eduard III ning talabini rad etishadi. Toj-taxt Kapetinglarning yon shox vakili Filipp VI Valuaga (1328-1350) beriladi. Bu vaziyatda Eduard III o'z huquqini qurol yo'li bilan amalga oshirishga qaror qiladi. Harbiy mojaro Yevropa qit'asidagi eng yirik urushga aylanib, unga turli ittifoqlar siyosiy kuchlar va mamlakatlar: Angliya tomonida Germaniya, Flandriya, Aragon va Portugaliya; Fransiya tomonidan - Kastiliya, Shotlandiya va papalik jalb etiladi. Urushda ishtirok etgan mamlakatlar ichki taraqqiyoti bilan bog'liq qator davlatlar va birlashmalarining Fransiya va Angliya, Angliya va Shotlandiya, Fransiya

va Flandriya, Kastiliya va Aragonning hududiy chegaralanish masalasi ham qo'yilgan. Angliya uchun u o'z tarkibiga turli xalqlarni kiritgan unversal davlat tashkil etish masalasiga, Fransiya uchun esa, mustaqil davlat tarkibida saqlanib qolish muammosiga aylandi. [1] (1)Yuz yillik urush jang harakati juda sekillik bilan bordi. Urush rasmiy suratda 1337-yil boshlanadi. Flanfiriya va u bilan qoshni Baraband Angliya tomoniga o'tdilar. Flandriya grafi fransuz koroli tomoniga qochib o'tdi. Urush to'xtabto'xtab yuz yildan ortiq davom etib, unda ko'plab jang to'qnashuvlar, qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi va buning natijasida xalq holdan toydi. Fransuzlar janglarda asosan mag'lubiyatga uchiradi. Ingliz qiroli Genrix V qulay vaziyatdan foydalanishga qaror berib, 1415-yilda yana urush harakatlarini boshlab yubordi. U o'sha zamonda g'oyat katta hisoblangan 600 ming kishilik qo'shin, Sena daryosi mansabiga kelib tushdi. Fransuz hukumati 100ming kishilik lashkar to'pladi, lekin uning harbiy mahorati g'oyat past edi. 1415-yilning kuzida ingliz qo'shinlari bilan fransuz qo'shinlari Azinkurga (Pikardiyaga) yaqin joyda to'qnashganda fransuzlar yana qattiq mag'lubiyatga uchiradilar. Inglizlar deyarli Parijga yaqinlashib qoldilar va gersog Burgundiskiyning ko'magida Karl VI hukumatiga juda tahqirli sulh shartnomalarini qabul qilishga majbur etdilar. 1420-yilgi Trua shartnomasiga ko'ra, Wngliya bilan Fransiya umumiy korol qo'l ostida bitta korollikka birlashdilar. Karl VI vafot etgandan keyin tez orada uning qizi Yekaterinanaga uylangan Genrix V har ikkala mamlakatning koroli bo'lishi kerak edi. 1422-yil avgust oyi oxirida Genrix V 36 yoshida to'satdan qazo qildi. Shu yilning oktyabrida fransuz korolliki tarafdori bo'lgan Burgundiskiy ham to'satdan vafot etdi. Genrix V bilan Yekaterinaning 10 oylik o'g'li Genrix VI Angliya va Fransiyaning koroli deb e'lon qilindi. Luara daryosining janubidagi kichkina Burj shahri bir necha yilgacha Karl VII (o'zini fransuzlar qiroli deb e'lon qilgan) poytaxti bo'lib qoldi. Fransiyaning shimoli va janubi ikki raqib mamlakatga aylanib qoldi. 1428-yil inglizlar Orleanni qamal qilmoqchi bo'ldilar. Agar Orlean olinsa, inglizlarning Fransiya janubiga yanada hujum qilisha yo'l ochilgan bo'lar edi. [2] (2)

O'z manfaatlarini ko'zlagan Burgundiya, Bretan gersogliklari inglizlar tomoniga o'tib ketgan bir paytda, oddiy xalq ko'tarilib bosqinchilarga qarshi partizanlik urushi boshlanadi. Xuddi mana shunday Fransiya uchun hayot-mamot davrida tarix sahnasiga Janna d Ark chiqadi. Janna d Ark 1412 yili Shampin va Lotaringiya chegarasidagi Domremi qishlog'ida Jon Dorn degan dehqon oilasida tug'ilgan. 1429-yilning yanvar oyida Janna amakisi Dyuran Laksar bilan uydan qochib chiqib, inglizlarga qarshi kurashayotgan fransuz armiyasiga kelib qo'shiladilar. Bu yerda Janna uni taxt vorisi Karl huzuriga kuzatib qoyishlarini so'raydi va faqatgina u Fransiyaning ozod qilib, qiroлга toj kiydira olishini aytadi. 1429 yilning martida Karl VII ning qarlaridan birida uni qiroл qabul qiladi. U ritsarlik qurol-aslahasini taqib, otda qo'shinni aylanib chiqib, Orlean yonida urush harakatlarini boshlashga da'vat etadi. Janna fransuz qo'shini ichida intizomni ko'tarishga chaqirdi va dushman bilan kurashda o'zi katta pahlavonlik

ko'rsatdi. Orlean 1429 yilning 5 mayida ozod qilindi va Jannani «Orlean qizi» deb atashdi.3

Janna o'zini xudo Fransiyaga yuborgan haloskordek his qilardi. Janna o'zini Fransiyaning halaskori deb eion qilganda dastlab odamlar unga ishonmay, ustidan kulishdi. Hatto otasi ham qizimga biror narsa boigan boisa kerak, deb unga uydan tashqariga chiqishini taqiqdab qoyadi. 1429-yilning yanvar oyida Janna va amakisi Dyuran Laksar uydan qochib chiqib, inglizlarga qarshi kurashga tayyoigarlik ko'rayotgan fransuz armiyasiga kelib qo'shiladilar. Bu yerda Jama uni taxt vorisi Karl huzuriga kuzatib qobyishlarini so'raydi va g'oyibdan bir ovoz kelib «faqatgina u Fransiyaning ozod qilib, qirolga toj kiydira olishini aytadi». Oldin unga ishonmaydilar va qaytib ketishini maslahat beradilar. Nihoyat, qizning qat'iyiligini ko'rgan taxt vorisi Kctrl unga fransuz armiyasining taqdirini topshiradi. Xo'sh, Janna d'Arkning fransuz xalqi va tarixi oldidagi xizmati nimadan iborat? Janna d'Ark fransuz xalqiga vatanparvarlik namunasini ko'rsatadi: xalqning ruhini namoyon etdi. Janna d'Ark fransuz armiyasini orqasidan ergashib bora oldi. Tabiat uni lashkarboshilik talanti bilan taqdirlaganligini namoyish etdi; u armiyaning tushib ketgan kayfiyatini, ruhiyatini ko'tardi. Reyms shahrida qirolga toj kiydirish bilan Karlning fransuz qiroli ekanligini rasmiylashtirdi. Bu xizmati evaziga Karl tomonidan Jannaning oilasi keyinchalik dvoryanlik unvoni bilan taqdirlandi. 1429-yil 29-aprel kuni Orlean shahriga kirib kelish bilan Fransiya hududidan inglizlarni hay dab chiqarishni boshlab berdi. Angliyaning Fransiya ustidan hukmronlik rejasi amalga oshmay qoldi.

To'g'ri his-tuyg'ularga amal qilgan Janna tez orada Karlga Reyms shahrida toj kiyish marosimini o'tkazishga maslahat berdi. Karl bu maslahatni qabul qildi. Karl VII ning toj kiyish marosimi muvaffaqiyatli o'tdi va bu Fransiyaning qonuniy koroli bolgan Karlning obro' e'tiborini darhol ko'tardi. So'ngra Janna d'Ark urush harakatlarini tezlashtirish va Parij tomonga yurish qilishni qattiq turib korolga taklif qildi. Ammo Orlean to'dasi bu ishni paysalga sola boshladi. Dehqon qizning maslahatlariga quloq soldilar-u, lekin bu maslahatlar bajarilmadi. Unga hatto o'zini xavfga soluvchi mayda-mayda harbiy operatsiyalarni bajarish topshirildi. Shunday operatsiyalarning birida (Kompen shahrini mudofaa qilish paytida) burgundiyaliklar Jannani asr qilib olib so'ngra uni katta aqchaga inglizlar qo'liga topshirdi. [4](2)

Yepiskop Kashon boshchiligidagi sud Jannani afsungarlikda ayblaydi. Karl VII Jannani o'limdan qutqazishni xayoliga ham keltirmaydi. Tribunal tomonidan dahriylikda ayblangan Janna d Ark 1431 yilning 30 mayida Ruan shahri markaziy maydonida gulxanda yoqib yuboriladi. Inglizlar Jannani inkvizitsiya yordamida o'ldirishdi, lekin uning g'oyasini yo'q qila olmadilar. Janna yoqilgan joyda o'rnatilgan oq but bugunga qadar ham mavjud.[5] (3)

Janna d'Ark vafot etsa ham uning vatanparvarlik ishi o'z samarasini berdi. Ayni payyda go'dak korol davrida va harbiy muvaffaqiyatsizliklar sharoitida inglizlar lagerida feodallarning ayrim to'dalari o'rtasidaichki kurash tobora ko'proq

keskinlashib bordi. 1435-yilda gersog Burgundskiy ingliz-fransuz to'dasi bilan tuzgan ittifoqini bekor qildi. 1436-yilda Karl VII Prijga kirib keldi. 40-yillarda inglizlardan Giena va Normandiya batamom qaytarib olindi. Ular qo'lida birgina Kale porti qoldi. Garchi urushuvchi tomonlar o'rtasida rasmiy sulh shartnomasi tuzilmagan bo'lsa ham lekin Yuz yillik urush 1453-yilda to'xtadi. Shu tariqa urush tugadi. [6] (2)

Yuz yillik urushning natijalari. Yuz yillik urush 1453-yilda Angliya va Fransiya o'rtasida sulh tuzilishi bilan yakunlandi. Inglizlar qoiida faqat Kale porti qoldi, xolos. Urushda Fransiya katta talafot ko'rdi: aholining qariyb 1/3 qismi qirilib ketdi, juda ko'p yerlar xarobaga aylandi. Shu bilan birga urush fransuzlardagi milliy tuyg'uni uyg'otdi, inglizlarga qarshi kurashga ko'ngilli boiib otlanganlaming soni tobora ko'payib bordi. Mamlakatda vatanparvarlik toiqini kuchaydi. Gersog Burgundskiy inglizlardan butunlay yuz o'girdi va Fransiya qiroli bilan kelishuv sulhini tuzdi. Urush davrida urush xarajatlari bilan bogiiq soliqlarning yangi turlari paydo boidi. Bularning ichida Karl V II davrida joriy etilgan talya deb atalgan soliq juda ahamiyatlidir. Sababi, bu soliq keyinchalik IVansuz qirolligida. dehqonlar va shaharliklaming daromadlaridan olinadigan doimiy soliqqa va qirollik xazinasini boyitadigan asosiy manbalardan biriga aylandi.[4]

Xulosa:

O'rta asrlarda Angliya va Fransiya davlatlari o'rtasida yuz bergan yuz yillik urush tanaffuslar bilan yuz yildan ko'p davom etdi. Urush Fransiyaning ko'plab shaharlari vayron bo'ldi, davlatning janubi bilan shimoli o'rtasida anchagacha savdo-sotiq ham olib borilmadi bir tomondan urush Fransiyaning markazlashuviga turtki bo'ldi. Urushda fransuzlarning ko'p bora mag'lubiyatidan so'ng xalq ommasidan Janna d'Ark maydonga chiqdi Qiz bola bo'lishiga qaramay 17 yoshida jangda katta muvaffaqiyatlarga erishib "Orlean qizi" degan nomga ega bo'ldi. Shu sababli inglizlarning ayyorligi tufayli ularning qurboni bo'ldi. Uning halok bo'lishi keyingi janglarda xalqni uyg'otib g'alaba bayrog'iga aylandi.

Foydalanilgan adabiyot:

1. T.O'.Salimov "Jahon tarixi". T.; -2014
2. Semyonov "O'rta asrlar tarixi". T.; 1973
3. T. Douglas Murray "Jeanne D'Ark". New York.; 190
4. B. MIRK0M1L0V, F. AQCHAYEV, O. MAMIROV O'RTA ASRLAR TARIXITOSHKENT "MASHHUR-PRESS». 2016.